



CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED SCIENCES ISSN: 2660-5317

Special Issue, 2022 //
**"Challenges and Innovative Solutions of Life Safety in Ensuring
Sustainability in Economic Sectors"**

Development of Innovative Activities of Teachers in the Professional Education System.

Abdullaeva I.I

Chairman of Samarkand Railway Technical Department of Transportation Organization

Mediev M.B.

Master of Engineering Communication Systems, construction and installation group of Samarkand

State Institute of Architecture and construction

Received 13th Feb 2022, Accepted 15th Mar 2022, Online 7th May 2022

Abstract: The article examines the analysis of increasing the activity of teachers of professional subjects, provides a more effective and innovative version of the methodology of teaching vocational education.

Keywords: education, innovation, efficiency, network education standards, consulting, development

INTRODUCTION

Ta'lim tizimida tub islohotlar zarurligini e'tirof etish uchun pedagogik leksikonda "Innovatsiya" iborasi qo'llana boshladi. Keng ma'noda "Innovatsiya" pedagogik tizimga yangilik kiritish yo'li bilan ta'lim-tarbiya jarayonini maqbullashtirish,sifat va samara-dorligini oshirishni ko'zda tutadi. Pedagogik tizimni takomillashtirib,yuqori sifat va samaradorlikga erishishga oid g'oya nazariya, qoida, shakl- metodlar va vositalar tizimini pedagogik innovatsiyalar sifatida qabul qilish mumkin. So'ngi 20-25yil davomida pedagogikaga ko'plab yangiliklar kiritilayotganining guvohi bo'lib turibmiz. Misol sifatida yangi konsepsiylar invitsiyalar, Ta'lim standartlari, Davlat ta'lim standartlari va Tarmoq Ta'lim standartlariga , testlar, muqobil o'quv rejalari, yangi turdag'i professional ta'lim texnologiyalari va shu kabilarni ko'rsatish mumkin.

Main part. Malumki, pedagogik jarayon tizimli xususiyatiga ega bo'lib, ma'lum belgilangan chegarada barqaror qoladigan komponentlarni o'ziga qamrab oladi. Agar kiritilayotgan yangilik ruxsat etilganidan ortib ketsa, tizim buzilib, uning o'rniغا yangi xususiyatga ega boshqa tizim hosil bo'ladi.

Innovatsion jarayonlarning quyidagi tashkil etuvchi qismlari mavjud; yangiliklarni yaratish, ommalashtirish, tadbiq etish jarayoni, ular yaxlit innovatsion jarayonni tashkil etadi. Mana shunday uch tarkibli innovatsion jarayon ko'p xollarda o'rghanish obyekti xisoblanadi.

Innovatsion faoliyatning rivojlanishiga obyektiv va subyektiv omillar ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion faoliyatning rivojlanishini rag'batlantiradigan hamda uning natijalarini qabul qilishni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratish obyektiv omillarni tashkil etadi. Subyektiv omillar esa innovatsion jarayon subyektlari, ularning innovatsion faoliyatiga tayyorligi bilan bog'liq. Innovatsion jarayon subyektlariga pedagog-olimlar, ta'lif muassasasi raxbarlari, pedagoglar va boshqa ta'lif sohasi xizmatchilari kirishadi.

Pedagogik kadrlarni innovatsion salohiyatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatib o'tish mumkin:

- pedagog-kadrlarning ijod qilishi uchun erkinlikning taqdim etilganligi;
- novator pedagoglarning resurslar bilan taminlanishining rahbariyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi;
- jamoada munozara va fikrlar almashinuvining faol yo'lga qo'yilganligi;
- kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga ishtiyoqning rag'batlantirilganligi;
- pedagogning o'z-o'zini rivojlantirishi uchun imkoniyatlarning taqdim etilishi;
- yuqori darajadagi axboriy ta'minotning yo'lga qo'yilganligi;
- o'zgarishlar argumentatsiyasining asoslanganligi;
- jamoada ishonch va o'zaro bir-biriga yordam berish jarayonining qo'llab quvvatlanishi.

O'qituvchilar faoliyati innovatsion yo'nalgaligini tashkil etuvchi – psixologiya va pedagogika ilmi yutuqlarini amaliyotga tadbiq etish xisoblanadi. Bugungi kunda pedagog kadrlar uchun ilmiy pedagogik va psixologik tadqiqotlar natijalari va zamonaviy ma'lumotlarning yetarli emasligi yoki yetarlicha ta'lif-tarbiya jarayoniga olib kirilmasligi nomalum bo'lib qolmoqda. Shuning uchun o'qituvchilarni pedagogik tadqiqotlar natijalari bilan tanishtirish, ularni ta'lif jarayoniga tadbiq etishning maqsadga muvofiqligini tushuntirish o'qituvchilarda ilmiy tadqiqot natijalarini o'z faoliyatida qo'llash ehtiyojini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

Olimlar tomonidan ilmiy pedagogik tadqiqotlar quyidagicha uch guruxga bo'linishi e'tirof etilgan:

I.Fundamental ilmiy tadqiqotlar. Bu umumlashtiruvchi konsepsiylar natijasida buyuk yutuqlarga erishiladi avval noma'lum bo'lgan qonuniyatlar bog'liqlik asosida o'z yechimini topadi.

II.Amaliy (tajriba-sinov) xarakterdagи tadqiqotlar ta'lif-tarbiya jarayonining alovida qirralarini chuqr o'rghanish, avval shakllantirilgan qonun va nazariyalardan amaliy foydalanish shart-sharoitlarini aniqlashga yo'naltiriladi.

III.Metodik ishlanmalar yoki amaliyotga yo'nalgan tadqiqotlar- avvaldan ma'lum bo'lgan nazariy

qoidalarni hisobga olgan holda aniq tavsiyalarni ilmiy uslubiy jihatdan asoslash. Bunday tadqiqotlar asosan alohida o'quv predmetlarini o'qitishni takomillashtirish sinfdan va ta'lim muassasasidan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni imkon qadar samarali o'tkazishni ko'zda tutadi.

Har qanday pedagogik tadqiqotlar eng kamida quyidagicha to'rt bosqichni o'ziga qamrab oladi:

- 1.Tayyorgarlik bosqichi (tadqiqot dasturini tuzish, maqsad va vazifalarni belgilash, muammolarning nazariy va amaliy xolatini aniqlash maqsadida manbalar bilan tanishish o'z farazini ilgari surish, tadqiqot bosqichlarini belgilab olish);
- 2.Asosiy tadqiqotchilik tanlangan metodik majmuani qo'llash;
- 3.Miqdoriy va sifat tahlili bosqichidan olingan ma'lumotlarni qayta ishlash;
- 4.Yakuniy bosqich – tadqiq etilayotgan pedagogik jarayonning kechishini tavsiflovchi sabab, omil, shart-sharoitlari o'rnatiladi, tushuntiriladi va umumlashtiriladi.

Conclusion. Yuqorida zikr etilganlarga ko'ra "Pedagogik innovatsiya"- ta'lim-tarbiya va shaxsni rivojlantirish jarayonlarini maqbullashtirish maqsadida inson va texnika imkoniyatlari hamda ularning o'zaro ta'sirini hisobga olib tahsil oluvchilarda bilim, hatti-harakat usullari va ijobjiy shaxsiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishni ko'zda tutuvchi loyihalashtirish, tadbiq etish (amalga oshirish), natijalarni maqsad bilan qiyoslab kerakli tuzatishlarni kiritish bosqichlarini o'zida mujassamlashtirgan.